



THE ACTIVITY OF THE ACADEMY OF PERSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IN THE ISLAMIC REPUBLIC OF IRAN

Sevinch Dadajonova

1st-year student of the Persian-English group

"Iranian and Afghan Studies" Faculty

Tashkent State Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

M. Habibova

Senior Lecturer

"Iranian and Afghan Studies" Faculty

Tashkent State Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Purism, cultural heritage, language preservation, borrowings, influence of the English language, technology and science, popularization, official sphere, dynamic nature of language.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article discusses the activity of the Academy of Persian Language and Literature of the Islamic Republic of Iran, the research conducted by them, and the adopted terminology, as well as the role of pure and borrowed words in the Persian language.

ERON ISLOM RESPUBLIKASIDA FORS TILI VA ADABIYOTI AKADEMIYASINING FAOLIYATI

Sevinch Dadajonova

1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

M. Habibova

Katta o'qituvchisi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

TDShU

Toshkent, O'zbekiston

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Purizm, madaniy meros, tilni saqlash, o‘zlashmalar, ingliz tilining ta’siri, texnologiya va ilm-fan, ommalashuv, rasmiy doira, tilning dinamik tabiat ma’no.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasi Fors tili va adabiyoti akademiyasi faoliyati, ular tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar va qabul qilingan terminlar, sof va o‘zlashma so‘zlarning fors tilida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АКАДЕМИИ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ ИРАН

Севинч Дауджанова

Студент 1-го курса персидско-английской группы

Факультет "Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

M. Хабибова

старший преподаватель факультета

"Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Пуризм, культурное наследие, сохранение языка, заимствования, влияние английского языка, технологии и наука, популяризация, официальная сфера, динамическая природа языка.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность Академии персидского языка и литературы Исламской Республики Иран, проведенные ими исследования и принятая терминология, а также роль чистых и заимствованных слов в персидском языке.

Har bir millatning madaniy merosini saqlash uning tili bilan chambarchas bog‘liqdir. Til nafaqat mintaqaviy yoki milliy o‘zlikni himoya qilish, balki butun dunyo madaniyatining rivojiga ta’sir ko‘rsatadigan vosita sifatida xizmat qiladi. Fors tili o‘zining qadimiy tarixi va boy adabiyoti bilan nafaqat Eron, balki butun Islom dunyosi va Markaziy Osiyo madaniyatida muhim o‘rin egallaydi. Eronda 1935-yilda o‘z faoliyatini boshlagan Fors tili va adabiyoti akademiyasi tilni saqlash, rivojlantirish va boyitish kabi ustuvor maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. Bugungi kunda, Fors tili va adabiyoti akademiyasi Eronning o‘zidagina cheklanmasdan, butun dunyoda fors tilini o‘rganishni istaganlar uchun ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Akademiya ilmiy tadqiqotlar olib borish, purizmni amalga oshirish, ya’ni tilni chet el so‘zlaridan tozalash va sof forsiy muqobilidan foydalanish, yangi terminlar ishlab chiqish hamda fors tilini global miqyosda targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda.

Fors tiliga o‘zlashmalarning asosiy qismi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida kirgan. Bu davrda Fors tiliga ko‘plab rus, arab va fransuz tilidan o‘zlashmalar kirib kelgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yilliklarda ingliz tili ta’siri ham kuchaygan. Fors tili va adabiyoti akademiyasi sof fors tilini saqlab

qolish, uning asl go‘zalligini himoya qilish maqsadida purizm siyosatini amalga oshirib, ko‘plab chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning o‘rniga sof forsiy muqobil variantlarni ishlab chiqmoqda va ommaga taqdim etmoqda.

Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan so‘zlar zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda yaratilgan bo‘lib, ular texnologiya, ilm-fan, tibbiyat, madaniyat va dunyoda aktual bo‘lgan so‘zlarga nazar tashlansa, ularning sezilarli darajada ko‘p miqdorni tashkil etishi va kundan kunga omma orasida keng qo‘llanilayotganini guvohi bo‘lish mumkin.

Masalan, texnologiyalar va ta’lim sohasidagi: quyidagi so‘zlar uchraydi:

برخت (barxat) انلاین- (ānlayn) onlayn o‘rniga,

کامپیوتر - (rāyāne) رایانه kompyuter o‘rniga,

اسلايد (eslāyid) - نمابرگ namobarg o‘rniga,

انیمیشن (animeyshn) پویا نمایی- (puyānanāyi) o‘rniga kiritilgan.

Ilm-fan va ta’lim sohasida:

پاتент (pātent) تخت اختراع- o‘rniga,

پاوربانک (pāverbānk) سارژر باتری o‘rniga,

ایمیل (emeyl) - رایانمه o‘rniga,

آس کیو (āy kyu) ضریب هوش - o‘rniga qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, kundalik muloqotda ishlatiladigan ba’zi so‘zlar:

آدams (ādāms) - سفز (saffaz) saqich o‘rnida,

آیس کافه (ays kāfe) - قهوه یخی - kofe o‘rnida,

پارکینگ (parking) توقفگاه - parkovka joyi o‘rnida,

Biroq, har bir yangi so‘zning ommalashishi va xalq orasida qabul qilinishi vaqt talab qiladi. Masalan, (animeyshn) انیمیشن (eslāyid) آیس کافه , (ays kāfe) kabi so‘zlar keng tarqalib, kundalik hayotda faol ishlatilayotgan bo‘lsa, برخط (barkhat) kabi texnologik terminlar asosan rasmiy doiralarda uchraydi va xalq orasida kamroq qo‘llaniladi.

Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan muqobil so‘zlarning ommalashish darajasi turli omillarga bog‘liq. Tahlillarga ko‘ra, akademiya tomonidan taklif qilingan so‘zlarning taxminan 60-70 foizi ommaviy foydalanishda o‘z o‘rnini topgan. Qolgan so‘zlar esa asosan rasmiy doiralarda qolmoqda yoki xalq orasida chet tili o‘zlashmalariga qaraganda kamroq qo‘llanmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Fors tili va adabiyoti akademiyasi tomonidan tilni sof holatda saqlash maqsadida olib borilgan keng ko‘lamli ishlar va purizm siyosatiga qaramasdan, chet tillaridan, xususan, Yevropa tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalar butunlay tark etilmadi. Bu so‘zlar kundalik hayotda, texnologiya, ilm-fan va zamonaviy madaniyatda keng qo‘llanilib kelmoqda.

Masalan, Akademiya tomonidan o‘zgartirilgan so‘zlarning ayrimlari ommalashgan bo‘lsa-da, boshqa so‘zlar xalq orasida foydalanilmay qolmoqda. Buning sababi, chet so‘zlarning qisqaligi,

zamonaviy muhitga mosligi yoki odatiy ishlatilish shakli orqali xalq orasida chuqur ildiz otganligidadir. Shu sababli, akademiyaning faoliyati fors tilining sof forsiyligini tiklashda sezilarli natijalar ko'rsatayotgan bo'lsa-da, globalizatsiya va texnologiyalar davrida tilni chet so'zlardan to'liq holi qilish qiyin bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Akademiya fors tilining boy tarixiy merosini saqlash va rivojlantirish yo'lida muhim ishlarga asos solgan bo'lsa-da, tilning dinamik tabiatini va uning boshqa tillar bilan aloqadorligi sababli, chet el elementlarining ma'lum darajada saqlanib qolishi tabiiy jarayon sifatida qaraladi. Bu fors tilining nafaqat milliy o'zlikni, balki dunyo miqyosidagi muloqotni ham ta'minlaydigan universal vosita ekan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Gulyev, E. I. Persidskaya poeziya i tyurkskiye zaimstvovaniya [Persian poetry and Turkic borrowings]. In orgkomitet konferentsii, 2016, pp. 91
2. Quronbekov A., Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. -Toshkent, 2019.
3. Hashemi, Eftekhar Sadat, et al. "Phonological adaptation of Arabic loan words in Persian: Consonants." International Journal and Humanities and Social Science 4.6 (2014): 1.
4. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 312 б
5. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари.–Тошкент: Фан, 1987. – 103 б.
6. Чэнь Ю. Иноязычные заимствования в современном русском языке//Science for Education Today. – 2015. – №. 4 (26).
7. Ярцева В. Н. и др. Лингвистический энциклопедический словарь. – Советская энциклопедия, 1990.
8. Kurnianingsih E. I. A Study of English-Indonesian Borrowing Words in Daily Need Products : дис. – Universitas Muhammadiyah Surakarta, 2010.
9. Navabzadeh Shafi'i, Sepideh. "An Investigation of Changes in Meaning and Application of French Loan-words in Persian." Language Science 2.3 (2014): 107-128.
10. Белгородский Н.А. Современная персидская лексика // Языковые проблемы почислительным. –Л.,1927.– С. 26.
11. Жирков Л.И. Персидский язык. Элементарная грамматика. – М.: УРСС, 2008..
12. Овчинникова И.К. К вопросу об будельном весеноязычных заимствований в лексике современного литературного персидского языка / /Индийская и иранская филология. – М.:Наука,1971.– С. 49-50.
13. Куранбеков, А. "Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке." Вопросы филологии 22.14 (2003): 16-18.

14. Paraskiewicz, Kinga. "English loanwords in new Persian." *Folia Orientalia* 52 (2015).
15. Mohamadi F. A. The kinds of borrowing in Persian // Iranian Journal of Information processing and Management. – 2003. – T. 18. – №. 3. – C. 71-74
16. لغت‌نامه دهخدا. دهخدا علی اکبر. - ۱۳۱۹، تهران.